
O'zbekiston bayrog'i - yurtimning iftixori

O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kunning 28 yillik shodiyonasi yurtimizning har bir hududida ko'tarinki ruhda nishonlanmoqda. Markaziy ko'chalar bo'ylab davlatimiz bayrog'ini ko'klarga ko'targan holda yurishlar yurtdoshlarimiz ko'nglini faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldirdi.

Ushbu sana munosabati bilan Qo'shtepa tumanidagi Yoshlar markazida ham bayram tadbiri tashkillandi.

Tadbirda tuman hokimi Ilyos Novikov ishtirok etib, barcha tumanimiz aholisini bayrog'imiz qabul qilingan kun munosabati bilan samimiy tabrikladi. Tumanimiz hokimi bayrog'imizda aks etgan ranglarning o'ziga xosligi hamda har birining alohida ma'nolarga ega ekanligini ta'kidlab o'tdi.





Tadbir davomida Vatanni, tinchlikni tarannum etuvchi she'rlar, honandalar tomonidan yangragan kuy-qo'shiqlar jarangi barcha tadbir ishtirokchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

2019-11-18 17:49:31